

DUDUQLANUVCHI BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISH TIZIMI

Mirtoyeva Shoxruza Ibrohimjon qizi

*Toshkent kimyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti, Namangan shaxar
Davlatobod tumani 48-maktab inklyuziv o'qituvchisi, maxsus pedagogika (logopediya)
yo'nalishi*

Annotatsiya: *Maqolada duduqlanuvchi bolalar nutqini o'rganish. Duduqlanuvchi bolalarda mustaqil nutqni rivojlantirish usullarini, logoped, tarbiyachi va ota-onalar bilan suhbat o'tkazish. Duduqlanuvchi bolalarda mustaqil nutqni tekshirish. Duduqlanuvchi bolalar mustaqil nutqini rivojlantirishni takomillashtirish haqida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *ontogenetik rivojlanish, o'ziga xos jins va yosh xususiyatlari, kognitiv, kognitiv va affektiv jabhalar, genetik, ijtimoiy va shaxsiy omillar, bilish jarayonlari, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari, diagnostikasiva korreksiyasi jarayonlari, fonetik, leksik va grammatik vositalar.*

Davlatimizning qator qonun va qarorlarida jamiyatimizning bo'lagi bo'lgan alohida yordamga muxtoj bolalarni ijtimoiy qo'llash ularga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunarga o'rgatish sog'lom bolalar qatoridan o'zini olib o'z qobiliyati va imkoniyatlarini ko'sata olishga ma'naviy kamol toptirishga asos soluvchi choratadbirlar alohida e'tirof etilgan. Jismoniy va ruxiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash ta'lim tarbiya tizimi va mazmuni davr talabi darajasida takomillashtirish ulami kasbhunarga o'rgatish, sog'lom jamiyatda integrallash masalasiga davlatimiz tomonidan jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Alohida ehtiyojli bolalari ilk yoshdan ta'limga tayyorlash psixologiktibbiy pedagogik yordamlarni kompleks yo'naltirilgan holda olib borish masalalariga ko'proq e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan Ta'lim to'g'risida Qonuning I-bob 3-moddasida:

- davlat ta'lim talablari — ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

- tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

- ta'lim — ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon. 5-moddasida esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

"Ta'lif to'g'risida"gi Qonuning II-bobi 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lif tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lif oladi [1]. Shunga ko'ra bolaning ilk rivojlanish davridan boshlab va xomiladorlik davridan onaga g'amxo'rlik qilish keyinchalik bolalarda uchrab turadigan nutq kamchiliklarini oldini olishga imkon beradi. Bola nutqidagi kamchiliklar o'zgalar nutqini tushinishdagi qiyinchilik ularni atrofdagilar bilan muloqatda bo'lishi o'z tengqurlariga qo'shilib ketishini qiyinlashtiradi. Nutq tafakkur ko'ra olish bo'lganligi sababli bola ulg'aygan sari atrof muxitdagি tasavvurlari shakillanadi va uni aks ettirish so'z lug'ati orqali takomillashib boradi. Nutqning rivojlanishda ta'lif-tarbiya ijtimoiy hamda biologik omillarning ta'siri ham kattadir. Buyuk mutaffakirlarimiz Yusuf Xos Hojib odob, axloq ta'lif-tarbiya hamda ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini qomusiy asari —Qutadg'u-bilig asarida bilim zakovat soxibi bo'lishining asosiy kalitini til bayon qiladi. Til tufayli kishi o'z bilimi, aql idrokini, zakovotini til, so'z orqali bildiradi degan fikrlarini uqtiradilar [2]. Nutq faqat inson uchun xos bo'lgan alohida va yuqori darajadagi aloqa shaklidir. Nutqiy aloqa jarayonida kishilar fikr almashadilar va bir birlariga ta'sir etadilar. Nutqiy aloqa til orqali amalga oshiriladi. Til - bu fonetik, leksik va grammatik vositalar sistemasidir. Gapiruvchi o'z fikrini bayon etish uchun zarur bo'lgan so'zlarni tanlaydi, ularni til grammatikasi qoidalariga asoslanib bog'laydi va nutq a'zolari artikulyatsiyasi orqali talaffuz etadi.

Odam nutqi tushunarli va ma'noli bo'lishi uchun nutq a'zolarining xarakatlari aniq va to'g'ri bo'lishi kerak. Nutq buzilishlarini tahlil qilish tamoyillariga ta'rif bergan dastlabki tadqiqotchilardan biri R.YE.Levina hisoblanadi. Bundan oldin ham ko'pchilik olimlar nutq buzilishlarini, ularning kelib chirqish sabablarini, bartaraf etish hamda fiqomulohazalar bildirganlar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropa tibbiyotining nutq buzilishlarini o'rganish borasida qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarining katta ta'siri bo'lib, A.Kusmaul nutq buzilishlarining dastlabki turlari haqidagi yig'ilgan tasavvurlarini tanqid ostiga oldi; ularni sistemalashtirdi, atamalarni tartibga keltirdi. XX asr boshida chet elliq va rus tadqiqotchilari V.Oltushevskiy, G.Gutsman,(5) E.Freshels, S.M. Dobrogayevlarning ishlarida asos qilib olindi. Buning umumiy tomoni ko'p edi; etlopotogeneztik mezon bilan to'ldirilgan klinik yondashuv, buzilishlarning alohida turlari bilan kasallikning u yoki bu patalogik shakli o'rtasidagi bog'lanish, bunday xollarda nutq buzilishlar ko'pincha u yoki bu kasallikning alomati sifatida talqin qilinar edi, shuningdek, tasnif tili bunda lotin va grekcha so'z yasovchi elementlaridan tashkil topgan atamalardan qo'llanilgan. Tasniflar o'rtasida buzilishlarni guruhashning turli prinsiplari, shuningdek, u yoki bu mezonni tasniflashning muhimlik darajasiga bo'lgan qarashlaridagi ayrim qarama-qarshiliklar bilan bog'liq nomutanosibliklar ham kuzatiladi [3]. Nutqdagi asosiy funksiyalarning buzilishi kishi faoliyatiga albatta salbiy ta'sir ko'rsatadi, uning faolligini pasaytiradi, og'ir ruxiy kechinmalar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Masalan, ayrim so'zlarning noto'g'ri talaffuz etilishi kishini noqulay vaziyatga solib qo'yishi bilan birga uni atrofdagilar bilan muomala qilishda qiy nab qo'yadi, u gapirganda o'z fikrini to'la anglata olmaydi. Nutq

kamchiliklarining og'ir turlariga duduqlanish nutq nuqsoni kiradi. Nutq qobiliyatining rivojlanmaganligi nutq maromi (sur'ati tezligi) shuningdek, ifodali qilib gapirish, o'qish malakasi bilan ham belgilanadi. Duduqlanish nutq nuqsonida nutq sur'ati, maromi va ravonligi buzilishi bilan ta'riflanadi. Bunda nutqning kommunikativ funksiyasi izdan chiqadi, ya'ni aloqa vositasi bo'lmay qoladi. Duduqlanishda asosan nutq apparati muskullarining ravon ishlay olmasligi paylar tolalarning tortishib qolishi sabab bo'ladi. Chet el va rus olimlarining ta'kidlashicha dunyo bolalarining 2% da duduqlanish nuqsoni kuzatiladi. Bola tilining grammatik tuzilishini kattalarga taqlid etish yo'li bilan asta-sekin o'zlashtirib boradi, so'zлari ma'lum tartibda joylashgan gaplarni o'rganadi. O'z fikrlarini atrofdagilarga ma'noli nutq orqali ifodalay boshlaydilar. Bolaning o'zlashtirish qobiliyati bu davrda nihoyatda kuchli bo'ladi, ma'suliyat o'z-o'ziga talabchanlik ortib boradi. Biroq, ba'zi bolalarning nutq sur'ati, maromi, ravonligi buziladi. Ular duduqlanib (tutilib) tovush bo'g'in so'zlarini qayta-qayta takrorlab, yoki aksincha to'xtab qolib, so'ngra zo'r kuch bilan qiynalib talaffuz etadilar.

XIX asr boshlarida qator fransuz tadqiqotchilari duduqlanishni kelib chiqishini uning nutq apparatining va markaziy bo'limlari faoliyatidagi turli og'ishlar bilan bog'lab tushuntiradilar. XX asrning 30 va keyingi 5060 yillarida duduqlanish mexanizmini I.P. Pavloving inson oliy nerv faoliyati va qisman nevroz mexanizmi haqidagi ta'limotlariga suyangan holda ko'ra chiqa boshlangan. Bunda tadqiqotchilar duduqlanishni nevroz alomati tarzida (Y.A. Florenskaya, Y.A. Povorinskiy va boshqalar) duduqlanishni boshqa formalarini (V.A. Gilyarovsiy, M.B. Xvatsev, I.P. Povarnin, N.I. Jinkin, V.S. Kachergina va boshqalar) talqin qilganlar. Duduqlangan bolalarda xulq atvorida ham umumiy holatida ham ma'lum o'zgarishlar kuzatiladi. Arzimagan narsalardan xafa bo'lish, injiqlik, qo'rqish alomatlari paydo bo'ladi. Bunday ruhiy hodisalar duduqlanishni kuchaytiradi. Ba'zi bolalarning kamgap bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. Buni shifokorlar nevroz so'zi bilan yuritadilar. Duduqlanish nutq nuqsoni bilan chet el va rus olimlari shug'ullanganlar hozirgi kunda duduqlanish nutq nuqsonini logopedik mashqlar sistemasi asosida bartaraf etish usullari ishlab chiqilgan maktabgacha tarbiya yoshidagi duduqlanuvchi bolalar bilan S.A. Mironova, G.A. Volkova, V.I. Seliverstov, N.A. Chevelyova va boshqalar maktab yoshidagi bolalar bilan A.V. Yastrebova, R.YE. Levina , N.A. Chevelyova, S.M. Lyubinskaya, V.I. Selevyorstev va boshqalar o'smirlar va katta yoshdagи duduqlanuvchilarda I.Y. Ableyeva, L.YE. Andryonova, A.Y. Yevgenova, M.V. Smirnova va boshqalar korreksion ishlar sistemalarini va kompleks davolash ishlarini ishlab chiqqanlar [4]. Nutqiy sistema bosh miya a'zolarining faoliyatiga asoslanadi. Ulardan har biri nutq faoliyatining o'ziga xos vazifasini bajaradi. A.R.Luriya miya faoliyatini uchta funksional blokka ajratadi. 1-blok - bosh miya po'stlog'i osti haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi. U bosh miya qatlami tonusining normalligi va uning tetiklik holatini ta'minlaydi. 2-blok - orqa miya qatlami katta yarim sharlari bo'laklarni o'z ichiga oladi, tashqi dunyodan olingan sezgi axborotlarini qabul qiladi, qayta ishlaydi va saqdaydi. U bilish jarayonining amalga oshiradigan asosiy miya apparati hisoblanadi. Uning tuzilishi birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi doiralarga ajratadi. Birlamchi doira - miya qatlamlarining proyeksiyon doiralaridir, uning neyronlari juda ham



yuqori darajada o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ularda alohida sezgi a'zolaridan sezgi axborotlarini qabul qilish hodisasi yuz beradi. Miya qatlami apparatlarining birlamchi doiralar ustidan ikkilamchi doiralar qurilgandir. Ular birlamchi doira orqali olingan qo'zg'alishlarni tahlil qiladi. Ikkilamchi doiralar kabi o'zining ixtisosiy modelligi (ko'rish, eshitish)ni saqlaydi. Birlamchi va ikkilamchi doiralar u yoki bu analizatorlar (ko'rish, eshitish)ning bosh miya qatlami birikmasini o'zida namoyon etadi. Uchlamchi doiralar analizatorlarning miya qatlami bo'linmalarini o'zgartirish doiralari hisoblanadi. Ular turli modallikda olingan sezgi axborotlarini tahlil, sintez, integratsiya qilish vazifasini o'taydi.

Ularning faoliyati asosida sintezlarning beqaror va tashqi darajasidan simvolik darajaga e'tiborni qaratish munosabatlari murakkab logik-grammatik so'zlar qurilish haqidagi bilimlar bilan ish ko'rishga o'tish sodir bo'ladi. 3-blok katta yarim sharlar qobig'ining oldingi bo'limlari (motor, motor oldi va old frontal soxa) doirani o'z ichiga oladi. Bu blok inson faoliyatining rejalashtirish, moslashtirish va nazorat qilishni ta'minlaydi. U, shuningdek, miya qobig'i ostidagi a'zolar faoliyati barcha sistemalarning tonusi va tetik holatini ular faoliyati oldiga qo'yilgan vazifalarga muvofiq moslashtirishni amalga oshiradi. Nutq faoliyati barcha bloklarning birgalikda ishlash natijasida vujudga keladi. Shu bilan birga har bir blok nutq jarayonida alohida maxsus o'ziga xos xususiyati bilan ishtirot etadi. Rossiyada ko'pchilik tadqiqotchilar duduqlanishni nutq sohasidagi funksional buzilish, nutq nevrozi (I.A.Sikorskiy; I.K.Xmelevskiy; E.Anders va boshqalar) deb qaradilar yoki uni nutq apparatidagi g'ayriixtiyoriy harakatda ifodalanadigan sof ruhiy xastalik deb (Xr. Laguzen; G.R.Netkachev), psixoz deb (Gr. Kamenka,) belgiladilar [5]. Duduqlanish boshqa nevrozlar kabi qo'zg'alish, tormozlanish va patologik shartli refleksning shakllanish jarayonlaridagi zo'riqishni keltirib chiqaradigan turli sabablar natijasida paydo bo'ladi. Duduqlanish, bu - alomat ham, alomatlar yig'indisi ham emas, balki markaziy nerv sistemasining umuman xastalashuvidir (V.S.Kochergina) [6]. Tadqiqotchilar bolalardagi nutq buzilishlari tasnifi masalalarini ishlab chiqishda ikkita yo'nalishga ajraladilar. Birinchi yo'nalish tarafdarları nutq buzilishlarining umumiy logopediyaga daxldor an'anaviy nomenklaturasini saqlab qoldilar. Lekin uni yangi mazmun bilan boyitdilar. Boshqa yo'nalish tarafdarları an'anaviy bo'lgan nomenklaturani inkor etdilar va nutq buzilishlarining yangi guruhini tuzdilar. Shunday qilib, nutq buzilishining ikki turi tibbiy-pedagogik va psixolo-pedagogik va pedagogik turini R.YE.Levina asoslab berdi. S.M.Dobrogayev nutq buzulishlari sabablari orsida quyidagilarni ajratib ko'rsatdi. 1. Oliy nerv faoliyati kasalliklari. 2. Anatomik nutq apparatida patalogik o'zgarishlar. 3. Bolalikdan tarbiyaning yetishmasligi. 4. Organizmning umumiy nevropatik holati. M.YE.Xvatsev nutq buzulishi sabablarini ichki va tashqi omillarga ajratadi. Shu bilan birga organik (anatomik-fiziologik), (morfologik) funksional (psixogek) ijtimoiy psixologik va psixo-nevrologik sabablarni ajratib ko'rsatdi. Funksional sabablarni M.YE.Xvatsev, I.P.Pavlov ta'limoti orqali tushuntirdi. Bu talimot markaziy nerv sistemasida qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining o'zaro munosabatini buzilishi haqida bo'lib, M.YE.Xvatsev bu orqali organik va funksional, markaziy va periferik sabablarning o'zaro munosabati mavjudligini takidlaydi [7].

Nutq buzilishlari sababi deganda - organizmga tashqi yoki ichki zararli omilning ta'sir etishi yoki ularning o'zaro aloqasini tushunish mumkin, qaysiki, bu nutq buzilishi xususiyatini aniqlaydi. Nutq buzilishining umumiy ko'rinishi ko'pchilik olimlar va tadqiqotchilar har xil fikrlarida isbotladilar. Bolalarda va kattalarda uchraydigan eng ko'p duduqlanish nutq nuqsoni bo'lib bu nuqson bo'yicha o'tgan asrlarda ham ko'p olimlar bu muammoga qiziqqanlar va davolash ishlarini olib borganlar. Duduqlanish -bu nutq apparati muskullarining tortishish natijasida nutqning sur'at - ohangining buzilishidir. Hulosa qilib aytganda bu nuqson qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining muvozanati buzilishlaridan kelib chiqadi. -Duduqlanuvchi bolalarda mustaqil nutqni rivojlantirishda bolalar bilan korreksion ishlarini to'g'ri olib borilishi ularni erkin holatda tutilmasdan muloqotga kirishishi maqsadga muvofiqdir. -Tadqiqot ishimizda duduqlanuvchi bolalarni mustaqil nutqini tekshirganimizda bolalarning faqat ota-onalari bilan erkin nutqda gaplashganini guvohi bo'ldik. Chunki bolalar har kuni ota-onalari bilan bo'lganligi sababli, ulardagi his hayajon, qo'rquvni bo'lmasligi mustaqil muloqot qilishga yordam berdi. Ota-onalar bilan bo'lgan suhbatda va o'z yaqin o'rtoqlari bilan muloqatda mustaqil tutilmasdan, erkin holatda gapirishlarini guvohi bo'ldik. Logopedik mashg'ulotlarda esa bolalarni hayajonlanib, tutilib qolishlari kuzatildi. -Duduqlanuvchining erkin nutq darajasi uning faqat turli darajadagi mustaqilligiga emas, balki uning tayyorgarligiga ham bog'liqdir. -Duduqlanishni korreksiyalashning muvaffaqiyati uchun atrof-muhitni to'g'ri tashkil etish: ota- onalarning o'zaro munosabati, ularning va boshqa kattalarning bolaga nisbatan munosabati, dam olishni o'tkazish va boshqalar muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lex.uz/O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. Ayupova.M.Y. —Logopediyal O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatashriyoti Toshkent - 2007.
3. Ayupova.M.YU —Korreksion ishlar metodikasill Ma'ruza matni .T-2001
4. Axmedova Z.M, Ayupova M.YU, Nurkeldiyeva D.A.«Barmoqlar mashqi va logopedik o'yinlar», Toshkent «Yangi asr avlodii» 2007.
5. Bolajon (takomillashtirilgan —Maktabgacha yoshdagি bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablaril asosida ishlab uchun dastur). Tuzuvchi mualliflar S.S. Mirdjalilova, M.SH. Rasuleva, D. Sharipov va b.- Toshkent, 2010.
6. L.I. Belyakova, YE.A. Dyakova —Logopediya Zaikaniyell xrestomatiya - EksmoPressli, 2001.
7. L.I. Belyakova, Lubenskaya A.I. Priyom uchao'yeniya straxa rechi u detey, stradayuo'ix zaikaniyem J. Defektologiya, 1985.